

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
PREZIDENTI HUZURIDAGI STATISTIKA AGENTLIGI
JIZZAX VILOYATI STATISTIKA BOSHQARMASI**

**JIZZAX VILOYATINING
STATISTIK AXBOROTNOMASI**

**2024-YIL
YANVAR-IYUN**

Jizzax – 2024-y.

SO‘Z BOSHI

Jizzax viloyatining statistik axborotnomasi Jizzax viloyatining ijtimoiy–iqtisodiy rivojlanishi, iqtisodiyot tarmoqlari va hududlar holatini kompleks tavsiflovchi Jizzax viloyati statistika boshqarmasining choraklik nashri hisoblanadi. Statistik axborotnomada 2024-yil yanvar-iyun oylari yakunlari bo‘yicha Jizzax viloyatining asosiy statistik ko‘rsatkichlari chop etilgan.

Ushbu nashrda 2017 yilning I choragidan boshlab, hisobot davri uchun statistik ko‘rsatkichlar Yevropa hamjamiyatining Iqtisodiy faoliyat turlari statistik tasniflagichiga (NACE Rev.2) asoslangan O‘zbekiston Respublikasining iqtisodiy faoliyat turlari umumdavlat tasniflagichi (IFUT–2) bo‘yicha shakllantirilgan va taqdim etilgan.

Shu bilan birga, mavjud iqtisodiy faoliyat turlaridan foydalanishda IFUT–2 talablari qo‘llanilgan. Xususan, foydalanilayotgan yoki qayta ishlanayotgan mahsulotlarni ularning yangi turlariga qayta shakllantirishga yo‘naltirilgan barcha faoliyat turlari ishlab chiqarish jarayonlariga kiritilgan: tog‘–kon sanoati va ochiq konlarni ishlash, qayta ishlab chiqarish sanoati, elektr, gaz, bug‘ bilan ta‘minlash va havoni konditsiyalash, suv ta‘minoti, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig‘ish va utilizatsiya qilish, qurilish (tasniflagichning B,C,D,E,F seksiyalari). Qishloq xo‘jaligi ishlab chiqarishini, iqtisodiyot tarmog‘i sifatida talqin qilishdagi tafovutni bartaraf etish maqsadida, yangilangan tasniflagichda qishloq xo‘jaligi faqatgina dexqonchilik va chorvachilik mahsulotlarini ishlab chiqarishni o‘z ichiga olmay, balki o‘rmon va baliq xo‘jaliklari mahsulotlarini ham o‘z ichiga oladi (Seksiya A “Qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligi”).

Shuningdek, xalqaro statistika amaliyotiga muvofiq, iqtisodiy trendlarni yanada aniqroq tahlil qilish maqsadida, yalpi hududiy mahsulot tuzilmasidagi iqtisodiy faoliyat turlarining ulush ko‘rsatkichlari yalpi qo‘shilgan qiymatga nisbatan keltirilgan (ya‘ni, YAHM hajmidan mahsulotlarga soliqlar va subsidiyalar chiqarib tashlangan).

Nashr 13 ta tematik qismlardan tashkil topgan bo‘lib, u asosiy makroiqtisodiy indikatorlarni, shuningdek yalpi ichki mahsulotni ishlab chiqarish, korxonalar va tashkilotlar, jumladan kichik tadbirkorlik subyektlarining iqtisodiy faoliyati, investitsion faollik, Qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligi, sanoat, qurilish, bozor xizmatlarining rivojlanish dinamikasi to‘g‘risidagi statistika ma‘lumotlarini o‘z ichiga oladi.

Statistik axborotnomada sanoat, qurilish, qishloq xo‘jaligi, transport, ichki va tashqi savdo, ulgurji va chakana savdo, mehnat bozori va demografik holat to‘g‘risidagi tahliliy ma‘lumotlar keng yoritilgan.

Dastlabki hisoblarga asosan kelgusida aniqlik kiritilishi mumkin bo‘lgan ko‘rsatkichlar keltirilmoqda.

Qisqartma va shartli belgilar

YaHM	—	yalpi hududiy mahsulot	l	—	litr
foiz	—	%	0,0	—	katta bo‘lmagan miqdor
mlrd.	—	milliard	m.	—	marta
mln.	—	million	—	—	ko‘rsatkichning yo‘qligi
mln.AQSH doll.	—	million AQSH dollari	Ga	—	gektar
kv	—	kvadrat	t	—	tonna
km	—	kilometr	1), 2), 3).....	—	izohning mavjudligi
m	—	metr			


MUNDARIJA

Nomi	bet.
ASOSIY IQTISODIY KO'RSATKICHLAR	5
I. YALPI HUDUDIY MAHSULOT	6–14
II. SANOAT	15–29
III. QISHLOQ, O'RMON VA BALIQCHILIK XO'JALIGI	30–47
IV. INVESTITSIYA VA QURILISH ISHLARI	48–63
V. XIZMATLAR	64–80
VI. TRANSPORT	81–84
VII. ISTE'MOL BOZORI	85–95
VIII. TASHQI IQTISODIY FAOLIYAT	96–110
IX. KICHIK TADBIRKORLIK	111–114
X. KORXONA VA TASHKIOTLARNING MOLIYAVIY NATIJALARI	115–126
XI. KORXONALAR VA TASHKIOTLAR FAOLIYATINING UMUMIY TAVSIFI	127–139
XII. DEMOGRAFIK HOLAT	140–149
XIII. O'RTACHA OYLIK NOMINAL HISOBLANGAN ISH HAQI	150–158

**Jizzax viloyatida asosiy iqtisodiy ko'rsatkichlar
2024-yil yanvar-iyun**

	<i>Ko'rsatkichlarnomi</i>	<i>Mlrd. so'm</i>	<i>2023-yil yanvar-iyuniga nisbatan foiz hisobida</i>
	Yalpi hududiy mahsulot	16 169,3	107,0
	Sanoat mahsuloti	11 451,5	108,3
	Qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi mahsulot (xizmat) lari	10 104,5	103,4
	Asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalar	10 137,9	134,9
	Qurilish ishlari	2 247,8	110,8
	Yuk aylanmasi (mln. tn–km)	536,3	101,8
	Yo'lovchi aylanmasi (mln. yo'lovchi.–km)	1 244,5	100,9
	Chakana savdo tovar aylanmasi	4 568,8	107,4
	Xizmatlar, jami	6 051,1	114,1
	Tashqi savdo aylanmasi, (mln. AQSH doll.)	1 013,7	198,6
	Eksport	97,9	108,0
	Import	915,8	2,2 m.
	Saldo (+,-)	-817,9	-

I. YALPI HUDUDIIY MAHSULOT





Dastlabki ma'lumotlarga ko'ra, viloyatda 2024-yilning yanvar-iyun oylarida ishlab chiqarilgan yalpi hududiy mahsulot (YaHM) hajmi joriy narxlarda 16 169,3 mlrd. so'mni tashkil etdi. YaHMning o'sish sur'ati o'tgan yilning mos davriga nisbatan 107,0 foizni tashkil etdi.



2022-2024- yillarning yanvar-iyun oylarida
YaHMning deflyator indeksi

2022-2024- yillarning yanvar-iyun
oylarida YaHMning o'sish sur'atlari

(o'tgan yilning mos davriga nisbatan foizda)




Yalpi hududiy mahsulot (YaHM) – milliy hisoblar tizimining asosiy ko'rsatkichi bo'lib, muayyan davrda mintaqaning iqtisodiy hududida joylashgan rezident – institutsional birliklar ishlab chiqarish faoliyatining yakuniy natijasini ifodalaydi. YaHM ishlab chiqarish usulida, iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha yalpi qo'shilgan qiymat hajmi va mahsulotlarga sof soliqlar yig'indisi orqali hisoblanadi.




**2022-2024 yillarning yanvar-iyun oylarida YaHM
o'sish (kamayish) sur'atlari
(o'tgan yilning mos davriga nisbatan, foizda)**


YaHM




Qurilish




Qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi




Xizmatlar



Sanoat



Maxsulotlarga sof soliqlar




**2024- yil yanvar-iyun oylarida iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha
YaHM ishlab chiqarishda tarmoqlarning ulushi, foizda**

Iqtisodiyotning asosiy tarmoqlarida kuzatilgan o'sish sur'atlari YaHM o'sishida asosiy omil bo'lib xizmat qildi. Jumladan, qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi tarmog'ining o'sish sur'ati 103,3 foiz, (YaHM tarkibidagi ulushi 37,5 foiz), sanoat – 108,3 foiz (20,3 foiz), qurilish – 110,8 foiz (6,1 foiz), savdo, yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar – 129,0 foiz (8,5 foiz), tashish va saqlash, axborot va aloqa xizmatlari – 114,1 foiz (3,7 foiz) va xizmat ko'rsatuvchi boshqa tarmoqlar – 103,7 foiz (23,9 foiz)ni tashkil qildi.



**2024- yilning yanvar-iyun oylarida aholi jon boshiga
hisoblangan YaHM hajmi va o'sish sur'atlari**



Aholi jon boshiga hisoblangan YaHM 10 675,6 ming so'mni tashkil etdi va bu ko'rsatkich o'tgan yilning mos davriga nisbatan 4,8 foizga o'sdi.



2024- yil yanvar-iyun oylarida iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha YaHM ishlab chiqarish hajmi va o'sish sur'atlari

Ko'rsatkichlarnomi	Mlrd. so'm		O'sish sur'atlari, o'tgan yilning mos davriga nisbatan % da
	2023- yil	2024- yil	
I. YaHM	13 841,7	16 169,3	107,0
<i>shu jumladan:</i>			
 Tarmoqlarning yalpi qo'shilgan qiymati	13 401,2	15 679,8	107,1
 Mahsulotlarga sof soliqlar	440,5	489,5	105,0
Tarmoqlarning yalpi qo'shilgan qiymati	13 401,2	15 679,8	107,1
 Qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi	5 367,2	5 875,9	103,3
Sanoat (qurilishni qo'shgan holda)	3 513,7	4 126,5	108,9
 sanoat	2 696,5	3 176,6	108,3
 qurilish	817,2	949,9	110,8
Xizmatlar	4 520,3	5 677,4	110,1
 savdo, yashash va ovqatlanishbo'yichaxizmatlar	954,8	1 325,3	129,0
 tashish va saqlash, axborotva aloqa	470,6	588,0	114,1
 boshqa xizmat tarmoqlari	3 094,9	3 764,1	103,7

Iqtisodiy o'sish sur'ati milliy iqtisodiyotning asosiy tarmoqlarida kuzatilgan ijobiy o'sish sur'atlari bilan bog'liqdir.


**2024- yil yanvar-iyun oylarida iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha
YaHM tarkibi (jamiga nisbatan % da)**



	<i>Ko'rsatkichlarnomi</i>	2023- yil	2024- yil
	I. YaHM, jami	100,0	100,0
	<i>Shu jumladan:</i>		
	Tarmoqlarning yalpi qo'shilgan qiymati	96,8	97,0
	Mahsulotlarga sof soliqlar	3,2	3,0
	II. Tarmoqlarning yalpi qo'shilgan qiymati	100,0	100,0
	Qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi	40,0	37,5
	Sanoat (qurilishni qo'shgan holda)	26,2	26,4
	sanoat	20,1	20,3
	qurilish	6,1	6,1
	Xizmatlar	33,8	36,1
	savdo, yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar	7,1	8,5
	tashish va saqlash, axborot va aloqa	3,5	3,7
	boshqa xizmat tarmoqlari	23,2	23,9

2024- yilning yanvar-iyun oylari yakunlariga ko'ra, hudud iqtisodiyotining barcha tarmoqlarida yaratilgan yalpi qo'shilgan qiymat (YaQQ) hajmi umumiy YaHMning 97,0 foizini, mahsulotlarga sof soliqlar esa 3,0 foizini tashkil etdi.

Hisobot davrida qishloq, oʻrmon va baliqchilik xoʻjaligining YaHM tarkibidagi ulushi 37,5 foizni, sanoat tarmogʻi 20,3 foizni, qurilish 6,1 foizni va xizmatlar sohasi 36,1 foizni tashkil qildi.



Yalpi hududiy mahsulotning tarmoqlar boʻyicha tarkibi
yanvar-iyun holatiga (jamiga nisbatan foizda)




● Yalpi qoʻshilgan qiymat

● Mahsulotlarga sof soliqlar




2023-2024- yillarning yanvar-iyun oylarida YaHMning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha mutlaq o'sish sur'atlari (o'tgan yilning mos davriga nisbatan, % da)




2024- yilning yanvar-iyun oylarida YaHMning o'sishi hudud iqtisodiyotining asosiy tarmoqlaridagi ijobiy o'sish sur'atlari bilan bog'liqdir. O'sish sur'atlari qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligida 103,3 % (YaHM-tarkibidagi ulushi – 37,5 %), sanoatda – 108,3 % (20,3 %), qurilishda – 110,8 % (6,1 %), xizmatlar sohasida – 110,1 % ni (36,1 %) tashkil etdi. Xizmatlar sohasi tarkibida o'sish sur'atlari savdo, yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlarda 129,0 % (8,5 %), tashish va saqlash, axborot va aloqa 114,1 % (3,7 %), boshqa xizmat tarmoqlarida 103,7 % (23,9 %) ni tashkil qildi.




■ 2023-yil
■ 2024-yil





2023-2024- yillarning yanvar-iyun oylarida YaHMning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha deflyator indeksi (o'tgan yilning mos davriga nisbatan, % da)



2024- yilning yanvar-iyun oylarida YAHM deflyatori indeksi 2023- yilning yanvar-iyun oylaridagi narxlarga nisbatan 109,2 %ni tashkil etdi. YAHM deflyatori indeksining eng yuqori ko'rsatkichlari xizmatlar sohasida – 114,1 % va sanoatda – 108,8 % qayd etildi.




Xizmatlar sohasining yalpi qo'shilgan qiymati tarkibi (jamiga nisbatan foizda)



- Savdo, yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar
- Tashish va saqlash, axborot va aloqa
- Xizmat ko'rsatuvchi boshqa tarmoqlar

Jumladan, savdo, yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlarning YaHM tarmoqlari tarkibidagi ulushi 2024- yil yanvar – iyun oylarida – 8,5 foizni (2023- yil yanvar – iyunda – 7,1 foiz), tashish va saqlash, axborot va aloqa 3,7 foizni (3,5 foiz), xizmat ko'rsatuvchi boshqa tarmoqlar – 23,9 foizni (23,2 foiz) tashkil etdi.



2023-2024- yillarning yanvar-iyun oylarida kichik biznesning hajmi va YaHMdagi ulushi

2024-yilning yanvar-iyun oylarida kichik tadbirkorlik 10 710,8 mlrd. so'mni tashkil etdi (2023- yilning yanvar-iyun oylarida – 9 237,5 mlrd. so'm). YAHMdagi ulushi 68,3 % ni (2023- yilning yanvar-iyun oylarida – 68,9 %) tashkil qildi.

Kichik tadbirkorlikning YAHMdagi ulushining o'tgan yilning mos davriga nisbatan pasayishi yirik korxonalar ulushining ko'payishi bilan bog'liq.

